YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-yil 5-son

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

ISSN: 2181-1938

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Mustafayev, Y. Yarmolik, M. Sharifova, X. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvaliyeva

Musahhih:
M. Tursunov

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Vebsayt: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 21-oktabrda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 11,6.
Adadi: 100. Buyurtma: № 110.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tadqiqotlar oliy maktabi direktori, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti sho'basi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSH)

M. Vishovatiy – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

M. Hayat – Muhammadiyah Malang universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

A. Xashimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

A. Yakubov – Origin Uzbekistan ijrochi direktori, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

E. Egamberdiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti Tadqiqot markazi rahbari, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Sh. Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Uzakova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi sho'basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

G. Yo'ldasheva – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari sho'basi professori, yuridik fanlar doktori

A. Yo'ldoshev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti Tadqiqot markazi yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, dotsent

R. Altiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, professor v.b.

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho'basi professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. Oripov – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

F. Hamdamova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. So'fiyeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi sho'basi katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Э. Мустафаев, Е. Ярмолик,
М. Шарифова, Х. Юлдашева,
Ф. Усмонова, К. Абдувалиева

Корректор:
М. Турсунов

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387.

Свидетельство
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
21.10.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 11,6. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 110.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, 37.

© Ташкентский государственный юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

З. Эсанова – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – директор Высшей школы правовых исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – заведующий сектором узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по филологическим наукам, доцент

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

М. Хаят – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

А. Хашимхонов – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

А. Якубов – исполнительный директор Origin Uzbekistan, доктор юридических наук, доцент

М. Ахмедшаева – профессор сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Х. Хайитов – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

Э. Эгамбердиев – руководитель Исследовательского центра факультета междисциплинарного изучения права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, доцент

Ш. Исмоилов – заведующий сектором трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Г. Узакова – заведующая сектором экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Г. Юлдашева – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Юлдошев – ведущий научный сотрудник Исследовательского центра факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Р. Алтиев – декан факультета уголовного правосудия Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам, и. о. профессора

М. Курбанов – и. о. профессора сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

С. Орипов – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии по юридическим наукам

Ф. Хамдамова – и. о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

Д. Суфиева – старший преподаватель сектора теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Mustafaev, E. Yarmolik, M. Sharifova, Kh. Yuldasheva, F. Usmonova, K. Abduvalieva

Proofreader:
M. Tursunov

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 21.10.2026.
Paper size: A4. Cond.p.f: 11,6.
Units: 100. Order: № 110.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Director of the Graduate School of Legal Research of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

M. Hayat – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

A. Khashimhonov – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

A. Yakubov – Executive Director of Origin Uzbekistan, Doctor of Law, Associate Professor

M. Akhmedshaeva – Professor of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Kh. Khayitov – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

E. Egamberdiev – Head of the Research Center of the Faculty of Interdisciplinary Studies of Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

Sh. Ismoilov – Head of the Department of Labor Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

G. Uzakova – Head of the Department of Environmental Law of the Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

G. Yuldasheva – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Yuldoshev – Leading Research Fellow of the Research Center of the Faculty of Public Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

R. Altiev – Dean of the Faculty of Criminal Justice of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Acting Professor

M. Kurbanov – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

S. Oripov – Associate Professor of the Department of Law of Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

F. Hamdamova – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

D. Sufieva – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

11 **RAXMANOV AKMAL ERGASHEVICH**
Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashda davlatning konstitutsiyaviy-huquqiy majburiyatlari: mazmuni, turlari va amalga oshirish mezonlari
22 **ABDURAYIMOV MUHAMMAD SUVANQUL O'G'LI**
Advokatlik faoliyatini raqamlashtirish va advokatlik sirini saqlash kafolatlari
30 **ALLAMBAYEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Bojxona organlarida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tizimini takomillashtirish
38 **ASLONOVA NAFISA OLIMOVNA**
Tadbirkorlik subyektlarining halolligi prezumpsiyasi iqtisodiy huquqlarni sudda himoya qilishning protsessual kafolati sifatida

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

52 **TURDIALIYEV MUHAMMAD ALI PO'LATJON O'G'LI**
Sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari
63 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA, KAYUMOVA ASALYA SULTONMURODOVNA**
Venchur investitsiyalar hamda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar (private equity): huquqiy tartibot va shartnomaviy konstruksiyalardagi farqlar
74 **ABDUSAMATOV NURULLO QOBILJON O'G'LI**
Raqamli mulk fuqarolik huquqi obyekti sifatida

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

82 **SOBITOVA UMIDAXON MUROD QIZI**
Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyaning oldini olishda prokuratura organlarining o'rni

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

92 **UTAYEV XUSNIDDIN XURRAMOVICH**
Raqamli muhitda mulkiy tajovuzlarni farqlashning jinoyat huquqiga oid mezonlari
101 **ABBOSOV MIRSULTON MIRSHAROF O'G'LI**
Sun'iy intellekt ishtirokida sodir etiladigan ayrim qilmishlarning obyektiv belgilari namoyon bo'lishi
110 **NEMATILLOYEV BAXROM VAXOBOVICH**
O'zbekiston jinoyat qonunchiligida "kiberjinoyat" tushunchasini takomillashtirishning nazariy-huquqiy asoslari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

116 **XALILOV AKRAM UTAMURODOVICH**
Sud ekspertizasi institutining huquq tizimidagi o‘rni va sohaviy qonunchilikdagi kolliziyalarni bartaraf etish masalalari
123 **NOSIROV AMIRXON BAHODIR O‘G‘LI**
Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatida isbotlash predmetining kriminalistik jihatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

130 **YUNUSOV XAYDARALI MURATOVICH**
Xalqaro organlarga murojaat qilish huquqini ta’minlashning mintaqaviy mexanizmlari va tartib-taomillari
143 **MUSAYEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish: xalqaro-huquqiy hamkorlikni rivojlantirish tendensiyalari
154 **UMAROV RUSTAM ZULFUKAROVICH**
“Markaziy Osiyo – Xitoy” formati xalqaro-huquqiy tartibga solinishi: evolyutsiyasi, shartnomaviy-huquqiy bazasi va hamkorlikning institutsional mexanizmlari
166 **SAYFULLAYEVA MAHBUBA AZIM QIZI**
Xalqaro moliya markazlarida ingliz huquqini joriy etish va qo‘llash modellari: qiyosiy-huquqiy tahlil
174 **XUDAYBERGANOVA NIGINA TO‘LQIN QIZI**
Maxsus missiyalar institutining tarixiy rivojlanishi

HUQUQNI SOHALARARO TADQIQ ETISH

185 **XADJAYEVA SAODAT ANVAROVNA**
Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlashda zamonaviy huquqiy va institutsional mexanizmlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

11 **РАХМАНОВ АКМАЛ ЭРГАШЕВИЧ**
Конституционно-правовые обязанности государства по обеспечению основных прав и свобод человека: содержание, виды и критерии реализации

22 **АБДУРАЙИМОВ МУХАММАД СУВАНКУЛ УГЛИ**
Цифровизация адвокатской деятельности и гарантии сохранения адвокатской тайны

30 **АЛЛАМБАЕВ ЖАВЛОНБЕК РУСТАМОВИЧ**
Совершенствование системы производства по делам об административных правонарушениях в таможенных органах

38 **АСЛОНОВА НАФИСА ОЛИМОВНА**
Презумпция добросовестности субъектов предпринимательства как процессуальная гарантия судебной защиты экономических прав

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

52 **ТУРДИАЛИЕВ МУХАММАД АЛИ ПУЛАТЖОН УГЛИ**
Перспективы совершенствования таможенного законодательства Республики Узбекистан в связи с внедрением технологий искусственного интеллекта

63 **КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА, КАЮМОВА АСАЛЯ СУЛТОНМУРОДОВНА**
Венчурные и прямые инвестиции (private equity): сравнительный анализ правового регулирования и договорных конструкций

74 **АБДУСАМАТОВ НУРУЛЛО КОБИЛЖОН УГЛИ**
Цифровое имущество как объект гражданских прав

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

82 **СОБИТОВА УМИДАХОН МУРОД КИЗИ**
Роль прокуратуры в предупреждении коррупции в сфере здравоохранения

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

92 **УТАЕВ ХУСНИДДИН ХУРРАМОВИЧ**
Уголовно-правовые критерии разграничения имущественных посягательств в цифровой среде

101 **АББОСОВ МИРСУЛТОН МИРШАРОФ УГЛИ**
Проявление объективных признаков отдельных деяний, совершаемых с участием искусственного интеллекта

110 **НЕМАТИЛЛОЕВ БАХРОМ ВАХОБОВИЧ**
Теоретико-правовые основы совершенствования понятия «киберпреступление» в уголовном законодательстве Узбекистана

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

116 **ХАЛИЛОВ АКРАМ УТАМУРОДОВИЧ**
Место института судебной экспертизы в системе права и вопросы устранения коллизий в отраслевом законодательстве
123 **НОСИРОВ АМИРХОН БАХОДИР УГЛИ**
Криминалистические аспекты предмета доказывания по делам о мошенничестве, совершённом с использованием информационных технологий

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

130 **ЮНУСОВ ХАЙДАРАЛИ МУРАТОВИЧ**
Региональные механизмы и процедуры обеспечения права на обращение в международные органы
143 **МУСАЕВ ДЖАМАЛИДДИН КАМАЛОВИЧ**
Борьба с незаконным оборотом наркотических средств: тенденции развития международно-правового сотрудничества
154 **УМАРОВ РУСТАМ ЗУЛЬФУКАРОВИЧ**
Международно-правовое регулирование формата «Центральная Азия – Китай»: эволюция, договорно-правовая база и институциональные механизмы сотрудничества
166 **САЙФУЛЛАЕВА МАХБУБА АЗИМ КИЗИ**
Модели внедрения и применения английского права в международных финансовых центрах: сравнительно-правовой анализ
174 **ХУДАЙБЕРГАНОВА НИГИНА ТУЛКИН КИЗИ**
Историческое развитие института специальных миссий

МЕЖОТРАСЛЕВОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПРАВА

185 **ХАДЖАЕВА САОДАТ АНВАРОВНА**
Современные правовые и институциональные механизмы подготовки научных кадров нового поколения

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

11 **RAKHMANOV AKMAL ERGASHEVICH**
Constitutional-legal obligations of the state in ensuring fundamental human rights and freedoms: content, types, and criteria for implementation
22 **ABDURAYIMOV MUKHAMMAD SUVANKUL UGLI**
Digitalization of advocacy activities and guarantees for maintaining advocacy confidentiality
30 **ALLAMBAEV JAVLONBEK RUSTAMOVICH**
Improving the system of administrative offense proceedings in customs authorities
38 **ASLONOVA NAFISA OLIMOVNA**
The presumption of good faith of business entities as a procedural guarantee for the judicial protection of economic rights

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

52 **TURDIALIEV MUHAMMAD ALI PULATJON UGLI**
Prospects for improving the customs legislation of the Republic of Uzbekistan in connection with the introduction of artificial intelligence technologies
63 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA, KAYUMOVA ASALYA SULTONMURODOVNA**
Venture capital investments vs private equity: differences in legal regulation and contractual structures
74 **ABDUSAMATOV NURULLO KOBILJON UGLI**
Digital property as an object of civil rights

12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

82 **SOBITOVA UMIDAKHON MUROD KIZI**
The role of the prosecutor's office in preventing corruption in the healthcare sector

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

92 **UTAEV KHUSNIDDIN KHURRAMOVICH**
Criminal law criteria for differentiating property offences in the digital environment
101 **ABBOSOV MIRSULTON MIRSHAROF UGLI**
Manifestation of the objective elements of certain acts committed with the participation of artificial intelligence
110 **NEMATILLOEV BAKHROM VAXOBOVICH**
Theoretical and legal foundations for refining the concept of "cybercrime" in the criminal legislation of Uzbekistan

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

116 **KHALILOV AKRAM UTAMURODOVICH**
The place of the institute of forensic examination in the legal system and issues of eliminating collisions in sectoral legislation
123 **NOSIROV AMIRKHON BAHODIR UGLI**
Forensic aspects of the subject of proof in fraud crimes committed using information technologies

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

130 **YUNUSOV KHAYDARALI MURATOVICH**
Regional mechanisms and procedures for ensuring the right to apply to international bodies
143 **MUSAEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**
Combating illicit drug trafficking: trends in the development of international legal cooperation
154 **UMAROV RUSTAM ZULFUKAROVICH**
International legal regulation of the “Central Asia–China” format: evolution, treaty framework, and institutional mechanisms of cooperation
166 **SAYFULLAEVA MAHBUBA AZIM KIZI**
Models for the introduction and application of english law in international financial centres: a comparative legal analysis
174 **KHUDAYBERGANOVA NIGINA TULQIN KIZI**
Historical development of the institution of special missions

INTERDISCIPLINARY STUDY OF LAW

185 **KHADJAEVA SAODAT ANVAROVNA**
Modern legal and institutional mechanisms for training a new generation of researchers

Kelib tushgan / Получено / Received: 26.08.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 08.10.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 21.10.2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65012
UDC: 340.6:340.13(045)(575.1)

SUD EKSPERTIZASI INSTITUTINING HUQUQ TIZIMIDAGI O‘RNI VA SOHAVIY QONUNCHILIKDAGI KOLLIZIYALARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

Xalilov Akram Utamurodovich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-4885-8703
e-mail: akramxalilov70@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sud ekspertizasi institutining huquq tizimidagi o‘rni, uning huquqiy va tashkiliy asoslari, sohaviy hamda protsessual qonunchilik o‘rtasidagi kolliziyalarni bartaraf etish masalalari ilmiy-nazariy, qiyosiy-huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Maqolaning asosiy maqsadi sud ekspertizasi institutining tarmoqlararo kompleks huquqiy institut sifatidagi mohiyatini ochib berish va maxsus qonunchilik hamda protsessual kodekslar o‘rtasidagi normativ ziddiyatlarni hal etishning nazariy, amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida doktrinal qarashlar, jumladan, ekspertologiya fani predmeti, uning tarkibiy tuzilishi hamda ilmiy maktablar konsepsiyalari tahlil qilingan. Natijada sud ekspertizasi instituti protsessual-huquqiy yadroga ega bo‘lgan, ma’muriy, mehnat, fuqarolik va xalqaro huquq normalarini birlashtirgan kompleks tuzilma ekanligi asoslangan. Ishning ilmiy yangiligi maxsus va protsessual qonunchilik kolliziyasini nafaqat protsessual norma ustuvorligi tamoyili, balki inson huquq va erkinliklarini ta’minlovchi qo‘shimcha kafolatlarni saqlab qolishni inobatga olgan holda hal etish tartibi asoslab berilganida namoyon bo‘ladi. Mazkur xulosalar asosida “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga takliflar shakllantiriladi.*

Kalit so‘zlar: *sud ekspertizasi, ekspertologiya, tarmoqlararo kompleks huquqiy institut, protsessual-huquqiy yadro, normativ kolliziya, maxsus qonunchilik, protsessual qonunchilik, shaxs huquqlari kafolatlari*

МЕСТО ИНСТИТУТА СУДЕБНОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ В СИСТЕМЕ ПРАВА И ВОПРОСЫ УСТРАНЕНИЯ КОЛЛИЗИЙ В ОТРАСЛЕВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ

Халилов Акрам Утамуродович,
доктор философии по юридическим наукам,
самостоятельный соискатель
Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Аннотация. *В статье с научно-теоретической и сравнительно-правовой точек зрения проанализированы место института судебной экспертизы в системе права, его правовые и организационные основы, а также вопросы устранения коллизий между отраслевым и процессуальным законодательством. Основная цель статьи заключается в раскрытии сущности института судебной экспертизы как межотраслевого комплексного правового института и разработке теоретических и практических механизмов разрешения нормативных*

противоречий между специальным законодательством и процессуальными кодексами. В ходе исследования проанализированы доктринальные взгляды, в частности представления о предмете и структуре экспертологии, а также концепции научных школ. В результате обосновано, что институт судебной экспертизы представляет собой комплексную структуру с процессуально-правовым ядром, объединяющую нормы административного, трудового, гражданского и международного права. Научная новизна работы заключается в обосновании порядка разрешения коллизий между специальным и процессуальным законодательством с учётом не только принципа приоритета процессуальной нормы, но и сохранения дополнительных гарантий обеспечения прав и свобод человека. На основе указанных выводов формулируются предложения к Закону Республики Узбекистан «О судебно-экспертной деятельности».

Ключевые слова: *судебная экспертиза, экспертология, межотраслевой комплексный правовой институт, процессуально-правовое ядро, нормативная коллизия, специальное законодательство, процессуальное законодательство, гарантии прав личности*

THE PLACE OF THE INSTITUTE OF FORENSIC EXAMINATION IN THE LEGAL SYSTEM AND ISSUES OF ELIMINATING COLLISIONS IN SECTORAL LEGISLATION

Khalilov Akram Utamurodovich,
Independent Researcher at the Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *This article examines, from a scholarly, theoretical, and comparative legal perspective, the place of the institution of forensic examination within the legal system, its legal and organizational foundations, and issues related to resolving conflicts between sector-specific and procedural legislation. The primary aim of the article is to reveal the nature of forensic examination as a complex intersectoral legal institution and to develop theoretical and practical mechanisms for resolving normative inconsistencies between special legislation and procedural codes. The study analyses doctrinal approaches, including views on the subject matter of forensic expertology, its structural composition, and the concepts developed by various scholarly schools. As a result, it is substantiated that the institution of forensic examination constitutes a complex legal structure with a procedural-law core that integrates norms of administrative, labour, civil, and international law. The scientific novelty of the study lies in substantiating an approach to resolving conflicts between special and procedural legislation not only on the basis of the principle of the priority of procedural norms, but also with due regard to preserving additional safeguards designed to ensure human rights and freedoms. On the basis of these conclusions, proposals are formulated for amending the Law "On Forensic Expert Activities."*

Keywords: *forensic examination, expertise, intersectoral integrated legal institution, procedural-legal core, normative conflict, special legislation, procedural legislation, guarantees of individual rights*

Kirish

Zamonaviy huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish sharoitida odil sudlov sifati va samaradorligini oshirish, sud eshituvini adolatli, xolis hamda ilmiy asoslangan dalillar bazasiga tayangan holda tashkil etish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatning jadal rivojlanishi, iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, ekologiya, tibbiyot va muhandislik sohalarining murakkablashib borishi munosabati bilan sud ishlarini yuritishda maxsus bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj misli ko‘rilmagan darajada ortib bormoqda. Ushbu jarayonda sud ekspertizasi instituti nafaqat ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashning eng ishonchli va obyektiv

vositasi, balki shaxs huquq va erkinliklarini konstitutsiyaviy darajada himoya qilishning muhim protsessual kafolati sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini isloh qilish, sud-ekspertlik faoliyatining qonunchilik va institutsional asoslarini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilinib, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari institutining joriy etilishi, ekspertlik tadqiqotlarining turlari va ko‘lami kengayishi ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqdi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, maxsus qonunchilik normativlari va protsessual kodekslar (Jinoyat-protsessual, Fuqarolik-protsessual, Iqtisodiy-protsessual hamda Ma’muriy sud ishini yuritish to‘g‘risidagi kodekslar) o‘rtasida tartibga solish sohasi hamda huquqiy normalar kolliziyasi bilan bog‘liq qator ilmiy-amaliy muammolar haligacha o‘zining to‘liq yechimini topmagan (Ismailov, 2022).

Asosiy qism

Sud ekspertizasiga oid asosiy masalalardan biri ushbu institutning huquq tizimidagi o‘rni hamda uning sohaviy tabiatini aniqlashdan iborat bo‘lib, ushbu masala yuzasidan ham yuridik doktrinada yagona va yakdil yondashuv mavjud emas. O. Dyakonovaning (2021) ta’kidlashicha, huquqshunos va ekspertolog olimlar bu borada ikkita asosiy guruhga bo‘linadilar. Birinchi guruh vakillari (A. Vinberg, N. Malaxovskaya, Y. Galyashina, Y. Rossinskaya va boshqalar) sud ekspertizasining huquqiy hamda tashkiliy asoslarini ekspertologiya fani predmeti va tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadilar (Vinberg & Malakhovskaya, 2013; Rossinskaya, 2018). Ikkinchi guruh vakillari (R. Belkin, T. Averyanova va boshqalar) esa ushbu masalalarni ekspertologiya predmeti va doirasiga kiritmay, ularni sof protsessual huquq fani predmeti deb hisoblaydilar (Belkin, 2011; Averyanova, 2017).

Ushbu maqolaning maqsadi sud ekspertizasi institutining huquq tizimidagi o‘rniga oid ilmiy-doktrinal qarashlarni atroflicha tahlil qilish, uning tarmoqlararo kompleks huquqiy institut sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash hamda sohaviy va protsessual qonunchilik o‘rtasidagi normativ ziddiyatlar (kolliziyalar)ni bartaraf etishning takomillashtirilgan yuridik mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Nazariy ekspertologiyada sud ekspertizasining huquqiy va tashkiliy masalalarini fan predmetiga kiritish bo‘yicha shakllangan qarashlar xilma-xilligi ushbu sohaning nihoyatda murakkab, ko‘p qirrali hamda kompleks xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. R. Belkin (2011) o‘z tadqiqotlarida ekspertologiya fanining mazmuniga ekspertlik faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini kiritish mumkin emasligini ta’kidlab, ushbu masalalar tegishli protsessual va ma’muriy huquq tarmoqlarining o‘rganish obyekti ekanini uqtirgan edi. T. Averyanova (2017) ham ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlagan holda sud ekspertizasini protsessual institut sifatida o‘rganish va tadqiq etish ko‘proq normativ materialni tavsiflash (deskriptiv yondashuv) bilan bog‘liqligini, bu esa fanning o‘ziga xos uslubiy-texnik xarakteriga mos kelmasligini qayd etgan. Ularning konseptual pozitsiyasiga ko‘ra, ekspertologiya predmeti birinchi navbatda ekspertiza o‘tkazishning tabiiy, texnikaviy va uslubiy qonuniyatlari hamda maxsus bilimlarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari bilan cheklanishi lozim.

Ushbu yondashuv va mantiqiy qarashlarga qisman qo‘shilish mumkin. Sababi ekspert obyektlarini identifikatsiyalash, diagnostika qilish, ekspertiza usullari va metodologiyasini ishlab chiqish hamda boshqa maxsus bilimlarga oid gnoseologik masalalar ekspertologiyaning mustaqil ilmiy-nazariy yo‘nalishini tashkil etadi. Biroq sud ekspertizasini tartibga soluvchi huquqiy va tashkiliy normalar majmuyini faqatgina oddiy normativ materialni tavsiflash obyekti sifatida baholash mutlaqo

yetarli emas. Mazkur normalar majmuyi yuridik fan va ekspertologiya uchun kompleks va mustaqil tadqiqot predmeti hisoblanadi. Chunki ushbu normalarning o‘zaro bog‘liqligi, iyerarxik uyg‘unligi, amaliy samaradorligi va ularni takomillashtirish yo‘llari aynan huquqshunoslik va ekspertologiyaning tutashgan metodlari asosida tadqiq etiladi. Tegishli huquqiy va tashkiliy-institutsiya bazasisiz har qanday yuksak ilmiy-texnikaviy ekspertlik tadqiqotlarining natijalari protsessual jihatdan dalil kuchiga ega bo‘la olmaydi.

Y. Rossinskaya boshchiligidagi ilmiy maktab vakillarining fikricha, sud ekspertologiyasi faqat maxsus bilimlarning gnoseologik va metodik masalalari bilan cheklanib qolmasdan, sud-ekspertlik faoliyatining huquqiy va tashkiliy asoslarini ham to‘liq o‘z ichiga olishi lozim. Shu sababli Y. Rossinskaya (2023) sud ekspertologiyasi fanining chuqur va mantiqiy asoslangan to‘rt bo‘g‘inli tizimini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu tizim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Sud ekspertologiyasining umumiy nazariyasi (fanning predmeti, obyekti, tizimi, metodologiyasi, ekspertologik gnoseologiya va ilmiy tushunchalar apparati);

2. Sud-ekspertlik faoliyatini huquqiy ta’minlash (sud ekspertizasining normativ-huquqiy bazasi, protsessual tartiblar, ekspertning huquqiy maqomi va javobgarligi);

3. Sud-ekspertlik faoliyatini tashkiliy ta’minlash (ekspert muassasalari tuzilishi, mutaxassislarni tayyorlash, kadrlar va moddiy-texnik ta’minot, ekspertlik faoliyatini litsenziyalash va akkreditatsiyalash);

4. Sud-ekspertlik texnologiyalari (muayyan ekspertiza turlari bo‘yicha tadqiqot usullari, metodikalari, algoritmlari va axborot-tahlil tizimlari).

Mazkur to‘rt bo‘g‘inli konseptual yondashuvning metodologik ildizlari o‘z vaqtida A. Vinberg va N. Malaxovskaya tomonidan ilgari surilgan sud ekspertologiyasi (ekspertiza faoliyatining umumiy nazariyasi) konsepsiyasiga borib taqaladi (Vinberg & Malakhovskaya, 1973). Ushbu to‘rt bo‘g‘inli mantiqiy tizim sud ekspertologiyasi nazariyasi va zamonaviy yurisprudensiya rivojlanishida muhim ilmiy-amaliy yutuq hisoblanadi. Mazkur yondashuv sud ekspertizasi institutining huquqiy va tashkiliy-boshqaruv asoslarini tizimli hamda uzviy ravishda o‘rganish zarurligini konseptual darajada asoslab berdi. Bu esa amaliyot va ilmiy doktrina o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Sud ekspertizasi institutining huquq tizimidagi o‘rni va uning qaysi huquq tarmog‘iga mansubligi masalasida ham yuridik adabiyotlarda bir-birini inkor etuvchi turli yondashuvlar mavjud. E. Zaytseva (2015) maxsus qonun normalari har bir protsessual va sohaviy qonunchilikka singib ketgani natijasida amaliyotda beshta mustaqil institut (jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual, arbitraj-protsessual, ma’muriy-protsessual va ma’muriy-huquqiy ekspertiza institutlari) shakllangani haqidagi fikrni ilgari suradi. O. Dyakonova (2016) esa o‘z navbatida, maxsus bilimlardan foydalanishning umumiy makroinstituti mavjudligini va u kelajakda o‘zining alohida predmet hamda metodiga ega bo‘lgan mustaqil huquq tarmog‘iga aylanishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Ushbu mualliflarning qarashlarini tahlil qilgan holda ularga faqat qisman qo‘shilish mumkin. E. Zaytseva har bir huquq tarmog‘i va protsessual kodeks doirasida ekspertizaga oid o‘ziga xos normativ asoslar mavjudligini haqli ravishda ko‘rsatib o‘tadi. Biroq ushbu tarmoq normalarining asosiy manbayi, huquqiy tamoyillari va konstitutsiyaviy-huquqiy mohiyati umumiy hamda bir xil bo‘lgani sababli ularni bir-biridan mutlaq ajralgan beshta mustaqil institut emas, balki yagona huquqiy institutning sohaviy, protsessual ko‘rinishlari deb baholash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi.

Ikkinchi tomondan, O. Dyakonovaning (2016) sud ekspertizasi kelajakda mustaqil huquq tarmog‘i sifatida shakllanishi haqidagi gipotezasi ham bahsli hisoblanadi. Chunki har qanday mustaqil huquq tarmog‘i o‘ziga

xos va noyob tartibga solish predmeti hamda metodiga ega bo‘lishi shart. Sud ekspertizasi munosabatlarida esa tartibga solish metodi asosan protsessual-huquqiy (imperativ va qisman dispozitiv-protsessual) hamda ma’muriy-huquqiy metodlardan kelib chiqib, uning o‘zi mustaqil avtonom huquqiy metodni shakllantirmaydi.

T. Tolstuxina tomonidan ilgari surilgan yondashuv ushbu masalada eng mantiqiy va huquqiy jihatdan asosli hisoblanadi. Olimaning konsepsiyasiga ko‘ra, sud ekspertizasi huquq tizimida tarmoqlararo kompleks huquqiy institut sifatidagi maqomga ega (Tolstukhina, 2016). Biroq T. Tolstuxina o‘z ishlarida ushbu kompleks institut doirasida har xil huquq sohalari normalari o‘rtasidagi iyerarxiya va munosabatlar nisbati masalasiga yetarlicha to‘xtalib o‘tmagan. Mazkur nazariy xulosani O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi tahlili ham to‘liq tasdiqlaydi. Xususan, yuqorida tilga olingan yangi Qonunda sud ekspertizasi institutini tartibga soluvchi normalar o‘zining predmeti va huquqiy mazmuniga ko‘ra turli huquq sohalariga mansub bo‘lib, kompleks xususiyat kasb etadi. Jumladan, sud ekspertizasini tayinlash va o‘tkazish, uning shakllari hamda natijalarini rasmiylashtirishga oid protsessual-huquqiy normalar (32–39-, 41-moddalar); sud-ekspertlik faoliyatini tashkil etish, malakaviy talablar, davlat reyestrlari, vakolatli organlar faoliyati va ilmiy-uslubiy ta’minotga oid ma’muriy-huquqiy normalar (13–15-, 21–22-, 28–29-, 43–47-moddalar); sud ekspertlarini kasbiy tayyorlash, ularning mehnat kafolatlari va ijtimoiy muhofazasiga oid mehnat, ta’lim va ijtimoiy-huquqiy normalar (48–49-, 53-moddalar); shartnoma asosida tadqiqot o‘tkazish va ekspert fikrini berish bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy elementlarni o‘zida mujassam etgan normalar (40-, 42-moddalar), shuningdek, sud-ekspertlik sohasidagi xalqaro hamkorlikni tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy normalar (2-moddaning ikkinchi qismi, 51–52-moddalar) nazarda tutilgan.

Ushbu tahlildan kelib chiqib, sud ekspertizasi institutini protsessual-huquqiy yadroga ega bo‘lgan hamda uni tashkiliy, institutsional va ijtimoiy jihatdan ta’minlovchi ma’muriy-huquqiy, mehnat-huquqiy, fuqarolik-huquqiy hamda xalqaro-huquqiy normalar majmuyini o‘zida mujassam etgan tarmoqlararo kompleks huquqiy institut sifatida baholash ilmiy-nazariy jihatdan eng to‘g‘ri xulosa hisoblanadi.

Sud ekspertizasi institutida protsessual-huquqiy normalarning yetakchi (yadroviy) o‘rnini hamda uni ta’minlovchi boshqa huquq tarmoqlari normalarining funksional va xizmat ko‘rsatuvchi ahamiyatini to‘g‘ri aniqlash amaliyotda yuzaga keladigan normativ kolliziyalarni hal etish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. T. Tolstuxina ta’kidlaganidek, huquqiy tartibga solishning normativ tabaqalanishi va sohaviy tarqoqligi natijasida bir sud protsessi doirasida olingan ekspert xulosasidan boshqa protsessual ishda foydalanish imkoniyati sezilarli darajada cheklanadi va huquqni qo‘llashda jiddiy to‘siqlarni keltirib chiqaradi (Tolstukhina, 2013). Y. Rossinskaya esa bunday normativ ziddiyatlar amaliyotda ko‘pincha tegishli protsessual kodeks normalarining ustuvor qo‘llanishi orqali hal etilishini, buning oqibatida esa maxsus sohaviy qonunchilikdagi ayrim muhim va kafolatlovchi qoidalar amaliy qo‘llanishdan chetda qolib ketishini ko‘rsatib o‘tadi (Rossinskaya & Galyashina, 2017).

Biroq kolliziyalarni faqat protsessual qonunchilik normalarining har qanday holatda mutlaq ustuvorligi (*lex specialis / lex posterior*) tamoyili asosida hal etish har doim ham adolatli va mukammal yuridik yechim bo‘la olmaydi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi o‘zining fundamental huquqiy pozitsiyalarida protsessual kodeks normalarining ustuvorligi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va maxsus qonunlarda shaxs huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha kafolatlar nazarda tutilgan hollarga tatbiq etilmasligi kerakligini qat’iy belgilagan. Maz-

kur konstitutsiyaviy-huquqiy pozitsiya va doktrina sud ekspertizasi sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda normativ kolliziyalarni bartaraf etish jarayonida alohida e'tiborga olinishi lozim.

Shu bois sud ekspertizasi institutidagi kolliziyalarni hal etishda protsessual-huquqiy yadroning ustuvorligini saqlab qolgan holda boshqa huquq tarmoqlari hamda maxsus qonunchilikdagi normalarning shaxs huquq va erkinliklarini ta'minlashga hamda ekspertiza faoliyatining xolisligini oshirishga qaratilgan kafolatlovchi funksiyasini ham hisobga olish zarur.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Sud-ekspertlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2-moddasida sud-ekspertlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning tarkibi belgilangan bo'lsa-da, unda maxsus qonun normalari bilan protsessual qonunchilik normalarini tartibga solish predmeti va funksional chegaralari aniq ajratib berilmagan. Shu munosabat bilan huquqni qo'llash amaliyotining barqarorligi, bir xilligi va prognoz qilish imkoniyatini ta'minlash maqsadida maxsus qonun hamda protsessual qonunchilikning tartibga solish sohalarini, shuningdek, ular o'rtasidagi kolliziyalarni hal etish qoidalarini qonun darajasida aniq mustahkamlab qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bunda shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha kafolatlarni nazarda tutuvchi normalar uchun maxsus istisno qoida belgilanishi zarur.

Yuqoridagi ilmiy va qiyosiy-huquqiy tahlillardan kelib chiqib, "Sud-ekspertlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasini ushbu mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

"Sud ekspertizasini tayinlash va o'tkazish, sud ekspertining protsessdagi ishtiroki hamda ekspert xulosasidan sud ishlarini yuritishda foydalanish bilan bog'liq munosabatlar protsessual qonunchilik va ushbu Qonun bilan tartibga solinadi. Sud-ekspertlik faoliyatini tashkil etish va ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Sud ekspertizasini tayinlash va o'tkazishning protsessual tartibiga oid masalalarda ushbu Qonun normalari bilan protsessual qonunchilik normalari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelgan taqdirda, protsessual qonunchilik normalari qo'llanadi. Bunda ushbu Qonunda shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha kafolatlar nazarda tutilgan hollar istisno hisoblanadi".

Ushbu taklif etilayotgan qonunchilik qo'shimchasi sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning funksional va tartibga solish chegaralarini aniq belgilab beradi. Shuningdek, u maxsus qonun va protsessual qonunchilik o'rtasidagi amaliy kolliziyalarni bartaraf etish hamda sud va tergov amaliyotida shaxs huquqlarining qo'shimcha kafolatlarini ishonchli ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

O'tkazilgan ilmiy-nazariy hamda qiyosiy-huquqiy tadqiqot natijasida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelindi:

1. "Sud ekspertizasi instituti" tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni sof protsessual doira bilan cheklanmaydi. U protsessual-huquqiy yadroga ega bo'lgan hamda ma'muriy, mehnat, fuqarolik va xalqaro huquq normalarini o'zida birlashtirgan tarmoqlararo kompleks huquqiy institut hisoblanadi.

2. Nazariy ekspertologiyadagi to'rt bo'g'inli tizim (umumiy nazariya, huquqiy ta'minlash, tashkiliy ta'minlash va sud-ekspertlik texnologiyalari) sud ekspertizasi faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, amaliyot hamda ilmiy doktrina o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning konseptual-metodologik zamini bo'lib xizmat qiladi.

3. Maxsus sohaviy qonunchilik va protsessual kodekslar o'rtasidagi normativ kolliziyalarni hal etishda protsessual qonunchilikning ustuvorligi tamoyiliga amal qilish bilan birga, maxsus qonunda belgilangan va inson huquq

hamda erkinliklarini kafolatlovchi qo‘shimcha normalarning ustuvorligini saqlab qolish zarur.

4. “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga taklif etilayotgan qo‘shimcha protsessual va ma’muriy-tashkiliy munosabatlarning chegaralarini qonun darajasida aniq belgilab berib, huquqni qo‘llash amaliyotidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etadi.

REFERENCES

Averyanova, T. V. (2017). *Sudebnaya ekspertiza: tipovye doktrinalnye oshibki* [Forensic examination: typical doctrinal errors]. Norma.

Belkin, R. S. (2011). *Kurs kriminalistiki* [Course of criminalistics] (3rd ed.). Yuniti-Dana.

Danilov, G. A., & Azarkhin, A. V. (2023). Institut sudebnoy ekspertizy v ugolovnom sudoproizvodstve [The institution of forensic examination in criminal proceedings]. *Theory and Practice of Social Development*, (12), 384–390. https://doi.org/10.24158/tipor.2023.12.51

Dyakonova, O. G. (2016). Perspektivy razvitiya nauki “Sudebnaya ekspertologiya” [Prospects for the development of the science of “Forensic Expertology”]. *Economic Security Bulletin*, (4), 42.

Dyakonova, O. G. (2021). *Sudebnaya ekspertologiya* [Forensic expertology]. Prospekt.

Ismailov, Sh. A. (2022). Processual qonunchilikda normativ kolliziyalar va ularni bartaraf etish usullari [Normative collisions in procedural legislation and methods of their elimination]. *Rights and Duties*, (6), 110–118.

Kudryavtseva, A. V., & Petrov, A. V. (2024). Formy ispolzovaniya spetsialnykh znaniy v ugolovnom sudoproizvodstve v zakonodatelnykh aktakh sovetskogo perioda i v nastoyashchee vremya [Forms of use of special knowledge in criminal proceedings in legislative acts of the Soviet period and at the present time]. *YuSU Bulletin. Law Series, 24*(1), 25–32. https://cyberleninka.ru/article/n/formy-ispolzovaniya-spetsialnyh-znaniy-v-ugolovnom-sudoproizvodstve-v-zakonodatelnyh-aktah-sovetskogo-perioda-i-v-nastoyaschee

Rossinskaya, E. R. (2018). Teoreticheskie i prikladnye problemy sudebnoy ekspertologii [Theoretical and applied problems of forensic expertology]. *Lex Russica*, (10), 200–215.

Rossinskaya, E. R. (2023). *Sudebnaya ekspertologiya* [Forensic expertology]. Norma.

Rossinskaya, E. R., & Galyashina, E. I. (2017). *Sudebnaya ekspertologiya: istoriya i sovremennost (nauchnaya shkola, ekspertnaya praktika, kompetentnostnyy podkhod)* [Forensic expertology: history and modernity (scientific school, expert practice, competency approach)]. Prospekt.

Tolstukhina, T. V. (2013). Protsessualne osnovy mezhotraslevogo instituta sudebnoy ekspertizy: sootnoshenie ponyatiy [Procedural basis of the interdisciplinary institute of forensic examination: correlation of concepts]. *Tula State University Bulletin. Economic and Legal Sciences*, (2-2), 133.

Tolstukhina, T. V. (2016). Sovremenne problemy mezhotraslevogo instituta sudebnoy ekspertizy [Modern problems of the interdisciplinary institute of forensic examination]. *Tula State University Bulletin. Economic and Legal Sciences*, (3-2), 170–185.

Vinberg, A. I., & Malakhovskaya, N. T. (1973). Sudebnaya ekspertologiya – novaya otrasl nauki [Forensic expertology – a new branch of science]. *Socialist Legality*, (11), 49.

Vinberg, A. I., & Malakhovskaya, N. T. (2013). *Sudebnaya ekspertologiya (obshchaya teoriya sudebnoy ekspertiz)* [Forensic expertology (general theory of forensic examinations)]. VAGS.

Zaytseva, E. A. (2015). *Primenenie spetsialnykh poznaniy v ugolovnom sudoproizvodstve* [The use of special knowledge in criminal proceedings]. Volgograd Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence